

QORAQALPOQ MILLIY KIYIMLARI

Sarbinaz Aliasqarova

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa va san’ati instituti

2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Asatillo Sunnatillayev

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa va san’ati instituti

“Doston ijrochiligi” kafedrası dotsenti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qoraqalpoq milliy kiyimlari ularning turlari kimlar tarafidan va qanday tarzda tikilishi, naqshlari va ularning ham turlari haqida to‘liq ma‘lumot berishga harakat qildim.*

Kalt so‘zlari: *Milliy ko‘ylak, bosh kiyim, ayollar kiyimi, ipak, ro‘mol, to‘n, naqsh, kashta, tugma, ko‘k ko‘ylak kamzol, bayram kiyimlari, dasturiy kiyimlar, mavsumiy kiyimlar.*

Milliy madaniyat va san‘at butun tarixiy o‘tmish davomida katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Unda xalqning tarixi, boshqa xalqlar bilan etnomadaniyat munosabatlari, estetik normalari gavdalanadi. Xalqimiz mustaqillikka erishgandan keyin dasturiy, milliy san‘atni, shuning ichida kastachilik, biser to‘qish v.h.k qayta tiklash ishlari avj oladi.

Ota-bobolarimizning madaniy me‘roslariga diqqat e‘tibor qaratish – XX asrning oxiri – XXI asrning boshidagi butun O‘zbekiston san‘atiga tan jihatdir. Qoraqalpog‘iston ham so‘nggi bir mecha yillar davomida yuz bergan sotsial-ekonomik o‘zgarishlar, kommunikativ munosabatlarning juda tezlik bilan o‘sishi oqibatida milliy madaniyatimizning transformatsiyalanishi (tur o‘zgarishi), dasturiy milliy hunarmandchilikning turlari bilan ayrim tayyorlash usullarining yo‘q bo‘lib ketishi natijasida xalq hunarmandchiligini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq milliy kiyimlarida ham bezatish-amaliy san‘atimizning juda boy dasturlari jamlangan bo‘lib, ular xalqimizning estetik tushunchalari bilan ifodalaydi, ruxiy v tarixiy tajribalarning avloddan-avlodga yetib kelishini ta‘minlaydi.

Qoraqalpoq kiyimlarining o‘ziga xos takrorlanmas o‘zgarishlari bor. Masalan, qoraqalpoq ayol-qizlarining kiyimi, undagi kashtalarning bir-biriga uyg‘unlashgan ranglarga juda boy ekanligi sababli ham takomillashgan. Kastachilik ham xalqimizning asrlar davomida rivojlangan ko‘rkam va estetik qarash va tajribasi, naqshlar bilan bezatilgan alvon turli obrazlar dunyosi tasvirlangan. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda xalq dasturlarini qo‘llangan holda kastachilik hunarini qayta tiklash va rivojlantirishga talab juda kuchli.

Xalqimizda milliy koloritni saqlagan holda zamonaviy liboslarning dizaynlarini yaratish uchun yetarli potentsiyal bor. Milliy o‘zgachalikni gavdalandiradigan sahnaviy kiyimlarni yaratish ham aktual masala bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi payt ayol-qizlarimizda milliy kiyimlarga nisbatan talab shiddatlik bilan ortmoqda.

Qoraqalpoq ayol-qizlarining kiyimi, yigit kishilarning kiyimi bilan solishtirganda, rangbarangligi, naqsh-bezatishlarning ko‘pligi bilan, qulayligi va ko‘zga tashlanar go‘zzalligi bilan keskin ajralib turgan. Ayol-qizlarning dasturiy kiyim-kenchagi inson bilan uyg‘unlashib, uning ichki dunyosiga, xarakteriga, turmush tarziga, aql-idrokiga mos bo‘lgan. Dasturiy kiyim-kenchaklarning murakkab kompleksi foydalilikni, go‘zzallikni va ruxiy asoslarni o‘zida jamlagan.

Qoraqalpoq ayol-qizlarining kiyimi uzun, keng va to‘g‘ri pishimda tikilgan ko‘ylaklardan, *ishtan* (diz kiyim), *jen’siz*, *shapan*, *jegde* va *baskiyim*, *geuishten* iborat bo‘lgan.

Ayol qizlarning oddiy uy kiyimlari keng va uzun ko‘ylaktan, to‘big‘iga tushadigan uzunlikta keng qilib tikilgan ishtondan iborat bo‘lgan. Ko‘ylaklar, odatda, uzunligi to‘biqtan pastga tushadigan, englari ham keng va bormoq uchidan 15-20 smga uzun qilib tikilgan. Ko‘ylakni tikish uchun bir butun matodan foydalangan, u ikkiga buklanib, ikki tomoni tikilgan, o‘rtasidan esa yoqa uchun joy qoldirilgan. Ko‘ylakning ikki tomonidagi tigishga engining tagiga pastga qarata kengaytirish uchun boshqa matodan qiyiqcha – *ushqul* qo‘yilgan.

Ayollarning bayram kiyimlari ko‘rkamlikning alohida fenomeni bo‘lib, unda xalqning azaliy o‘zgachaligi, ruxiyati gavdalangan. Yosh qizlarning ko‘ylaklarining yoqalari yon tarafga, kelinchaklar va yoshi kattaroq ayollarning ko‘ylaklarining yoqalari tikka qiyib tikilgan. Yoqani bog‘lash uchun bo‘yinga yaqin joydan bog‘ich, ikki tugma taqilgan. Bog‘ich tugmaning atrofiga o‘ralib, uchidagi ayshiq bog‘ning

bo‘shatilib ketmasligini ta’minlagan. Ko‘ylakning belidan ip tarzida bog‘lanib qolgan uzun gazlamadan qilingan *belbeu* bilan bog‘lagan.

Oddiy uy kiyimlar kashta yoki jiyekler bilan bezatilmagan. Taqinchoqlar ham uncha ko‘p bo‘lmagan: yoqaning ikki tomonidan to‘rtburchakli kumushtan yasalgan *shitaqlar* taqilgan.

Qoraqalpoq ayol-qizlarining liboslarida “Qirq qiz” dostonidagi yosh jangchilarning obrazlari tasvirlangan. Misol uchun, qizlar 15-16 yoshga to‘lganda kiyadigan ko‘k ko‘ylakni (ko‘k ko‘ylek) dostonning bosh qahramoni Guloyim huddi shu yoshida kiygan. Bu ko‘ylak qadimgi kiyimlarning biri hisoblanadi. Oldiga to‘lig‘i bilan chiroyli naqshlar tushirilgan *ko‘k ko‘ylek- (xalqali ko‘ylek, kesteli ko‘ylek* deb ham ataladi) lol qolarlik go‘zzallik bilan haqiqiy ko‘rkam yetuklikning namunasidir. *Ko‘k ko‘ylek* qo‘ldan to‘qilgan ko‘k gazlamadan tikilgan. Pichimi keng, to‘g‘ri qiyiq, egni tigishsiz pichilgan. Ikki tomoniga pastidan kichkina qilib qiyiq qo‘yilgan. Keng ham tik yoqa uchun ko‘krak yoniga o‘rtadan qiyiq qo‘yilgan. Yenglari keng va uzun. Ko‘ylak oldi to‘lig‘i bilan rangbarang ipak iplar bilan kashtalangan. Geometrik naqshlar yon qatorlar bo‘ylab joylashgan bo‘lib, vertikal burchaklardan o‘rin olgan muyuzli romblardan iborat. Pastida zirakni eslatib turuvchi naqshlar solingan (*sirg‘a nag‘is*). Ko‘k ko‘ylaktagi naqshlarning umumiy nomi- sauit naqsh deb ataladi.

Ko‘ylakning tashqarisidan *beshpent* (kamzol) kiyilgan. Kamzollar ikki xil bo‘lgan: *jen‘li* va *jen‘siz* (yil mavsumlariga qarab). Sovuq kunlari yengsiz kamzolning ustidan qalin, yengi uzun kamzol yoki sirilgan gupi kiyishgan. Bunday kamzollar hozirgi payttagi palto vazifasini bajargan. Kamzol tikish uchun fabrikada paxtadan to‘qilgan qora rangli qalin gazlamalar foydalanilgan. Qoraqalpoq qizlari ko‘pincha qora-ko‘kchil va qizg‘il-ko‘k rangdagi maqpal komzollarni xush ko‘rgan. Kamzol uchun qalin ipaktan to‘qilgan, “*pashshayi*” deb ataluvchi *jolaq* gazlama ham ishlatilgan.

Havoning sovuq kunlari ayol-qizlarimiz qovulgan *shapan* (chapon) kiyib, belidan belbog‘ boylashgan. Ular har xil tus va shaklga ega bo‘lgan. Imkoniyati borlar qimmat baholi hayvon terisi bilan ishlangan ishik shapan kiygan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, rivojlanishning uzoq yo‘lini bosib o‘tgan qoraqalpoqlar kiyimi XIX asrga kelib milliy san‘at durdonasi sifatidagi murakkab va yuqori darajadagi badiiy ansambli darajasiga ko‘tarildi. Uni turlarini

takomillashishiga Qibla Orol bo‘yi xalqlarining madaniyati, ijodi, turmush tarsi, diniy ishonchlari bilan milliy dasturlari katta ta’sir ko‘rsatgan. Qoraqalpoq xalqining dasturiy, milliy kiyimlarining tarixi, uning rivojlanib borishi, kiyinish madaniyati o’sha hudud dagi qadimgi tsivilizatsiyalar ham butun Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi bilan chambar-chas bog‘liq. Qoraqalpoq liboslari yuz yillar davomida takomillashgan xalqimizning uzoq o‘tmishini gavdalandiradigan boy madaniy me’ros bo‘lib hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Қарақалпақ Кийими» Нөкис – 2014 – Нукус
2. Алламуратова А.Қарақалпақская народная вышивка. Нукус. 1977
3. Белицер В.Н. Народная одеждаудмуртов. М.1951.
4. . WWW.Lex.uz